



**“KUTUBXONA” DEGANI FAQAT KITOB EMAS!
RESPUBLIKA BOLALAR KUTUBXONASI – SENING IMKONIYATLAR
OLAMING!**

Nozima Ziyodilloeva
O'zDJTU talabasi

Zamonamiz bolasi endi faqat kitob javonlariga tikilib qolmaydi. U izlanadi, o'rganadi, savollar beradi va o'z qiziqishini topishga harakat qiladi. Ana shunday izlanuvchan va orzuga chanqoq bolalar uchun Respublika Bolalar Kutubxonasi bugun oddiy kitobxona emas, chinakam imkoniyatlar makoniga aylangan.

Bu yerga bir bor kirgan bola, nafaqat o'qishni, balki ijod qilishni, sahnaga chiqishni, shaxmatda yutishni, hatto pulni to'g'ri boshqarishni ham o'rganadi. Har bir yoshga mos muhit, har bir qiziqishga yaratilgan sharoit bu maskanni boshqalaridan farqli qiladi.

Bu yerda nafaqat o'qiysan, balki rivojlanasan, ijod qilasan va kashf etasan!

Kutubxonada quyidagi ajoyib to'garak va mashg'ulotlar seni kutmoqda:

Shaxmat to'garagi: strategik fikrlash, diqqat va sabrni rivojlantirish uchun eng yaxshi tanlov! Har hafta o'tkaziladigan mini-turnirlar esa juda qiziqarli!

Kitobxonlik klubi: birgalikda eng sara asarlarni o'qib, muhokama qilasiz, qahramonlar hayotidan ilhom olasiz, hikoyalar yozishni o'rganasiz.

Moliyaviy savodxonlik darslari: “budjet”, “tejamkorlik”, “sarmoya” so'zlari faqat kattalar uchun emas! Pulni to'g'ri boshqarishni endi o'zlashtira boshlayotgan yoshlar uchun bu to'garak haqiqiy xazinadir.

Sahna nutqi va oratorlik san'ati: sahnada dadil gapirish, auditoriya oldida qo'rqmasdan chiqish qilish, o'z fikringni ta'sirli yetkazish – bular ham bu yerda o'rgatiladi!

Multimedia, teatr, rassomlik va animatsiya mashg'ulotlari: o'z iqtidorini topgan va hali topmagan bolalar uchun ilhomli muhit!

Kutubxona imkoniyatlari buning bilan tugamaydi!

Bu yerda zamonaviy kompyuter xonalari, internetga ulanish imkoniyati, interaktiv doskalar, audio-kitoblar, film ko'rish zallari va hatto virtual o'yin va treninglar uchun maxsus burchaklar ham mavjud. Har bir xona yorug', qulay va kreativ ruhda bezatilgan. Kutubxonaga kelgan bola o'zini qiziqarli sarguzashtga kirib ketgandek his qiladi.

Tashrif buyurgan har bir o'quvchining qiziqishlari, orzulari va o'sishiga yo'l ochadigan imkoniyatlar aynan shu maskanda jamlangan. Sen faqat kitob o'qib emas, balki do'st orttirasan, ijod qilasan, fikrlaysan va o'zingni yangidan kashf etasan!

Respublika bolalar kutubxonasi – bu yerda bilim ham, baxt ham, do'stlik ham bor!